

Tarix fanlari doktori, professor Dono Ziyoyeva vafot etdi

O'zR FA Tarix instituti ilmiy xodimi, tarixshunos olimi, professor Dono Hamidovna Ziyoyeva vafot etdi.



D.Ziyoyeva ilmiy faoliyatini 1983-yil Tarix institutida kichik ilmiy xodimlikdan boshlab, Institutning ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari (2000-2005), "XIX-XX asr tarixi" bo'limi mudiri (1998-yildan hozirgacha) kabi mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritib kelgan. Olima 1990-yil "Turkistonda XIX-XX asr boshidagi milliy ozodlik harakati tarixshunosligi" mavzusida nomzodlik, 1999-yil "1917-1924-yillarda Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari XX asr tarixshunosligida" mavzularida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Olima rahbarligida "O'zbekiston tarixi" ning V jildi, "O'zbekiston tarixi xrestomatiyasi" ning IV jildi va boshqa qator to'plamlar nashr etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidiumi professor Dono Hamidovna Ziyoyevaning vafoti munosabati bilan olimaning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.